Takliflar:

1. Postmodern adabiyot namunalarini o‘rganishda dekonstruktiv, semiotik va intertekstual tahlil metodlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

2. Modernizm va postmodernizm o‘rtasidagi vorislik va farqlarni aniqlash maqsadida qiyosiy tadqiqotlarni kengaytirish zarur.

3. O‘zbek adabiyotida postmodern unsurlarni aniqlash va ularni jahon adabiyoti kontekstida o‘rganish istiqbolli ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

4. Postmodern asarlarni talqin qilishda kitobxon kompetensiyasini oshirishga qaratilgan metodik qo‘llanmalar va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish lozim.

5. Globallashuv sharoitida madaniyatlararo intertekstual aloqalarni o‘rganish postmodernizmning yangi qirralarini ochishga yordam beradi.

Shunday qilib, postmodernizm adabiy tafakkur tarixida muhim bosqich bo‘lib, u nafaqat badiiy shakl va mazmunni, balki insonning olamni anglash usullarini ham tubdan yangilagan estetik hodisa sifatida ilmiy tadqiqotlarda izchil o‘rganishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Hutcheon L. A Poetics of Postmodernism: History, Theory, Fiction. Routledge (1988), p. 283.

(2). Eco U. Postscript to the Name of the Rose. Harcourt Brace Jovanovich (1984), p. 88

(3). Lyotard J.-F. The Postmodern Condition. A Report on Knowledge (G. Bennington & B. Massumi, Trans.). University of Minnesota Press (1984), p. 114.

(4). Jameson F. Postmodernism, or, The Cultural Logic of Late Capitalism. Duke University Press.

(5). (1991), p. 460.

(6). Derrida J. Of Grammatology (G.C.Spivak, Trans.). Johns Hopkins University Press. (1976), p. 354.

Muxammedova Xulkar Eliboyevna (O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti (Dsc), filologiya fanlari doktori, professor v.b.; E-mail:xulkarmuxammedova@uzswlu.uz)

GOTIK ROMAN JANRI TRANSFORMATSIYASI

Annotatsiya. *Maqola zamonaviy ingliz adabiyotida ijod qilayotgan adiba Syuzen Hill ijodida XIX asr gotika roman janri xususiyatlarining transformatsiyasiga bag‘ishlanadi. Uning ijodida aks etgan gotik roman janriga xos elementlar XIX asr romanlarida tasvirlanganligi bilan e’tirofga loyiq. Uning ijodiga mansub “Qora libosli ayol” asari adabiyotshunoslar tomonidan turlicha baholanganligi kuzatiladi.*

Kalit so‘zlar: *asar, taqdir, obraz, xususiyat, adiba, ingliz, gotik, transformatsiya.*

Мухаммедова Хулкар Элибоевна (УзГУМЯ, доктор филологических наук; E-mail: xulkarmuxammedova@uzswlu.uz

ТРАНСФОРМАЦИЯ ЖАНРА ГОТИЧЕСКОГО РОМАНА

Аннотация. *Статья посвящена трансформации особенностей жанра готического романа XIX века в творчестве современной английской писательницы Сьюзен Хилл. Отраженные в её произведениях элементы готического романа заслуживают признания благодаря тому, что они созвучны описаниям в романах XIX столетия. Примечательно, что её произведение «Женщина в чёрном» получает неоднозначные и разносторонние оценки со стороны литературоведов.*

Ключевые слова: *роман, судьба, образ, писательница, англичанин, готический, трансформация.*

Mukhammedova Khulkar Eliboyevna (UzSWLU, associate professor, Doctor of Science; E-mail: xulkarmuxammedova@uzswlu.uz)

THE TRANSFORMATION OF THE GOTHIC GENRE

Annotation. *The article is dedicated to the transformation of 19th-century Gothic novel characterristics in the works of the contemporary English writer Susan Hill. The elements of the Gothic genre reflected in her writing are noteworthy for their alignment with the descriptions found in 19th-century novels. It is observed that her work, The Woman in Black, has been evaluated in diverse ways by literary critics*

Key words: *novel, fate, image, feature, writer, English, gothic, transformation.*

Kirish. Syuzen Hill zamonaviy ingliz adabiyotining gotika janrida ijod qiayotgan adiba hisoblanadi. U klassik gotika an'analarini zamonaviy romanlarda transformatsiya qilganligini kuzatish mumkin. Uning ijodida gotika shunchaki qo‘rqinchli elementlar yig‘indisi emas, balki inson ruhiyatining qorong‘u qatlamlarini ochib beruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Yozuvchining “Woman in Black – Qora libosli ayol” asari aynan XIX asrga xos bo‘lgan gotika janri elementlari transformatsiyasini o‘zida aks ettiradi. Gotika roman adabiyotshunoslik lug‘atlarida quyidagicha **“**Gotik roman yoki dahshatlar romani XVIII asrning ik-

kinchi yarmi yoki XIX asr boshlarida G‘arbiy Yevropa va Amerikada paydo bo‘lgan g‘ayri tabiiy kuchlarni va dahshatli voqealarni tasvirlagan roman” [2;73-b.] ta’riflansa adabiyotshunos olim D.Quronov, Z. Mamajonova va M.Sheraliyevalar yaratgan adabiyotshunoslik lug‘atida “Gotik roman bu XVIII asrning ikkinchi yarmi yoki XIX asr boshlarida G‘arbiy Yevropa va Amerika adabiyotlarida ommalashgan g‘ayrioddiy, dahshat va sirlarga to‘liq voqealarni qalamga olishi bilan xarakterlanadi [3;83-b.] deya izoh beriladi.

Yuqorida keltirilgan ta’riflarga asoslanadigan bo‘lsak, gotik roman g‘ayri tabiiy kuchlar va dahshatli voqealar bilan xarakterlanadi. Bunday roman xususiyatlari XIX asr ingliz yozuvchilaridan bo‘lgan opa-singil Brontelar hamda Charlz Dikkensning bir qator romanlarida ko‘rish mumkindir. Mazkur yozuvchilar ijodida gotika xos bo‘lgan sirli voqealar makoni bu uy tasvirida keng aks etadi.Sharlotta Brontening “Jeyn Eyr” asaridagi Tornfild qasri hamda Geytsxolldagi qizil xonada sodir bo‘luvchi sirli hodisalar Emili Brontening “Momaqaldiroq dovoni” asarida ham o‘z aksini topadi. Charlz Dikkensning “Katta umidlar” asarida esa miss Hevishamning katta uyidagi g‘alati muhit, ya’ni qorong‘ilik uy bekasining sirliligidan dalolat berib turardi. Adiba romanida esa botqoqlik o‘rtasidagi yolg‘iz Eel Marsh House uyi tashqi dunyodan uzilganlik va chorasizlik ramzi bo‘libgina qolmay uy bilan bog‘liq bo‘lgan sirli voqea makonidir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Xorij tadqiqotchisi Jerrold E.Hogle Hill ijodini "Neo-Viktoriya gotikasi" kontekstida o‘rganib, undagi tarixga qaytish motivlarini tahlil qilgan. Tadqiqotchi Gina Wisker esa Hillning ayol qahramonlari va "ona-arvoh" obrazini fojiaviy onalik hamda jamiyat tazyiqi nuqtayi nazaridan tadqiq etgan. Fred Botting "Gothic- Gotika" asarida adibani klassik gotikani, ya’ni, Viktoriya davri an'analarini XX asr oxiri va XXI asr boshiga muvaffaqiyatli transformatsiya qilgan adiba sifatida baholaydi. Susan Hill ijodidni o‘rgana turib, uning gotika janrida yozilganligini ta’kidlagan amerikalik yozuvchi Stefan King "Qora libosli ayol" asarini zamonaviy davrning eng mukammal qo‘rqinchli asarlaridan biri deb atagan va uning "kam vositalar bilan ko‘p qo‘rquv uyg‘otish" uslubini yuqori baholagan. Sara Vaters esa muallifning "The Little Stranger – Kichik mavjudotlar" asari "Qora libosli ayol" asaridagi muhit va psixologik daxshat uslubiga juda yaqinligiga e’tibor qaratgan. tadqiqotchi Hillning uylarni "tirik mavjudot"ga aylantirish mahoratini o‘rgangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Gotika janri – bu adabiyot va san’atdagi eng sirli, hayratlanarli va o‘ziga xos janrlardan biri. U nafaqat qo‘rqinch, balki inson ruhiyatining eng qorong‘u burchaklarini tadqiq qilish bilan shug‘ullanadi. "Gotika" atamasi, dastlab, me’morchilikka nisbatan ishlatilgan (baland minoralar, rangli shishalar, mahobatli cherkovlar). Adabiyotga esa bu tushuncha XVIII asrning ikkinchi yarmida kirib keldi. Horace Walpole 1764-yilda "Otranto qasri" (The Castle of Otranto) asarini yozib, janrga tamal toshini qo‘ydi. Gotik asarni tahlil qilishda beshta asosiy xususiyat qayd etiladi. Bu xususiyatlarda makon, muhit, g‘ayri tabiiy elementlar, qahramon, o‘tmishning qaytishi namoyon bo‘ladi.

Tahlil va natijalar. Mazkur jadvalda gotika roman xususiyatlari adiba asarlarida quyidagicha transformatsiya bo‘lganligini kuzatish mumkin:

Xususiyat	Klassik gotika	Hill gotikasi
Zamon	Uzoq o‘rta asrlar, Viktorian davri	Zamonaviy davr
Qo‘rquv manbayi	Tashqi dushman, arvohlar	O'tmish xotiralari
Yakun	Yovuzlik ustidan g‘alaba	Fojiaviy yoki ochiq yakun

Hillning mahorati shundaki, u qahramonni asta-sekin o‘z mantiqiy dunyosidan chiqarib, irratsional qo‘rqinchlar dunyosiga olib kiradi. Asar yakunida Kipps g‘alaba qozonmaydi – u yovuzlikning bir qismiga aylanadi, chunki uning o‘z oilasi ham bu la’nat qurboni bo‘ladi. Jadvalda aks etgan xususiyatlar asarda ro‘y beruvchi voqealar jarayonida hikoya qilinadi. Angliyaning sharqiy hududida joylashgan Marsh Ill uyida sirli voqealar bo‘layotganligi haqida turli mishmishlar yosh advokat Artur Kipsni shu uyiga yetaklab keladi. Uydagi qorong‘ilik sababini tushunishga uingan Artur uyning bekasi bo‘lgan miss Drablo bilan bo‘lgan suhbatlashishga urinadi. Biroq uy bekasi bunga unchalik ham ro‘yxushlik bermaydi. Uyda bir necha kun qolishga izn sor‘ragach u uyda begona ayolga tegishli bo‘lgan maktublarni topadi. Bu maktublarda Janet Hamfri va uning o‘g‘li haqida yozilgandi. U bunga izoh so‘raydi. Ammo yosh advokat ko‘plab narsalarga qo‘shnilardan oydinlik kiritadi. Misis Drabloning singlisi Janet Hamfri turmushga chiqib farzandli bolganligi va turli sabablar bilan opasiga bolaga qarab turishi uchun berganligi va natijada bolani qaytarib berishni istamagan misis Drablo singlisini o‘ldirganligini aniqlaydi. Biroq qo‘lida yetarlicha dalillar bo‘lmaganligi sababli uni qattiy ayblay olmaydi va uyiga qaytadi. Kunlardan bir kuni Artur Kipsning xotiniga qora libosli ayol arvohi tashlanadi. Ayol yaxshigina jarohat oladi. Bundan Artur Kips ishni oxirigacha yetkazish kerakligini tushunib yetadi. Artur Kipsni qora libosli ayol taqib qilishini esa muallif quyidagicha tasvirlaydi: “Qora libosli ayol, hatto bu yerda ham meni ta’qib qilayotgandek edi. U go‘yo karvotiмning oyog‘ida o‘tirar, uxlab yotganimda yuzini to‘satdan yuzimga yaqinlashtirib pastga egilardi, men esa dahshat ichida qichqirib uyg‘onib ketardim – The Woman in Black seemed to haunt me even here, to sit on the end of my

bed ,to push her face suddenly down close to mine as I lay asleep, so I awoke crying out in terror" [1;38 p.].Tasvirda muallif tomonidan ishlatilgan "haunt – ingliz gotikasida ham "ta'qib qilish", ham "ruh bo'lib ko'rinish" ma'nosini anglatib, "ta'qib qilish" asardagi ruhiy bosimni yaxshi ifodalaydi, push her face close to mine – bu harakatdagi to'satdan va tajovuzkor yaqinlikni ifodalasa, crying out in terror, shunchaki, "baqirib" emas, balki ichki qo'rquv va vahimani ko'rsatish uchun "dahshat ichida qichqirib" yuborishni ifodalaydi. Mazkur asardan keltirilgan parcha biz tahlil qilayotgan "qo'rquv psixologiyasi" sini ochib berishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Gotik roman xususiyatlarini muvaffaqiyatli transformatsiya qila olgan ingliz adibasi Syuzen Hill zamonaviy gotik romanni yarata olibgina qolmay, ulardan farq qiluvchi xususiyatlarni ham ko'rsatib berganligi bian e'tirofga loyiqdir. "qora libosli ayol" romani o'tmish va xozirgi kun hayoti uzviyligini voqealar jarayonida aks ettiradi. Muallifning bunday mahorati zamonaviy gotika romani janrida ijod qila olishini kitobxonlarga to'la qonli isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Hill S. Woman in Black. London, Hamish Hamilton, 1983, 350 p.

(2). Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент, "Ўқитувчи", 1979, 250-бет.

(3). Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. Тошкент, "Akademnashr", 2013, 300-бет.

Sabirova Sevara Baxtiyorovna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Filologiya va san'at fakulteti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi; e.mail:sevarasabirova09@gmail.com)

MATNAZAR ABDULHAKIM IJODIDA FOLKLORIZM POETIKASI: MIFOLOGIK TAFAKKUR VA BADIIY TRANSFORMATSIYA

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Matnazar Abdulhakim she'riyatida folklorizm hodisasining poetik xususiyatlari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida xalq og'zaki ijodi unsurlarining badiiy matndagi funksional o'rni, mifologik va arxaik obrazlarning semantik qatlamlari, marosim motivlarining poetik transformatsiyasi hamda milliy tafakkur bilan zamonaviy estetik ong o'rtasidagi uzviy bog'liqlik masalalari yoritildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, folklorizm shoir individual uslubining ichki tarkibiy qismi bo'lib, u poetik tizimning konseptual yaxlitligini ta'minlaydi.*

Kalit so'zlar: *folklorizm, poetika, mifologizm, arxaik obraz, ramziylik, milliy mentalitet, badiiy transformatsiya, intertekstuallik.*

Сабирова Севара Бахтиёровна (независимый исследователь кафедры «Узбекский язык и литература» филологического факультета Ургенчского государственного университета имени Абу Райхона, Беруни; e.mail: sevarasabirova09@gmail.com)

ПОЭТИКА ФОЛЬКЛОРИЗМА В ТВОРЧЕСТВЕ МАТНАЗАРА АБДУЛХАКИМА: МИФОЛОГИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ И ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ

Аннотация. *В статье научно анализируются поэтические особенности фольклоризма в творчестве Матназар Абдулхакима. Исследуется функциональная роль элементов устного народного творчества в художественном тексте, семантика мифологических и архаических образов, художественная трансформация обрядовых мотивов, а также связь национального эстетического мышления с современным художественным сознанием. Делается вывод о том, что фольклоризм является ключевым компонентом индивидуального стиля поэта и обеспечивает концептуальную целостность его поэтической системы.*

Ключевые слова: *фольклоризм, поэтика, мифологизм, архаический образ, символика, национальный менталитет, художественная трансформация, интертекстуальность, эстетическая концепция.*

Sabirova Sevara Bakhtiyorovna (Independent researcher of the Department of "Uzbek Language and Literature" of the Faculty of Philology and Arts of Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni; e.mail:sevarasabirova09@gmail.com)

THE POETICS OF FOLKLORISM IN THE WORKS OF MATNAZAR ABDULHAKIM: MYTHOLOGICAL THINKING AND ARTISTIC TRANSFORMATION

Annotation. *This article provides a scholarly analysis of folklorism in the poetry of Matnazar Abdulhakim. The study examines the functional role of folklore elements in poetic texts, the semantic layers of mythological and archaic imagery, and the artistic transformation of ritual motifs. It also explores the relationship between national aesthetic thinking and modern artistic consciousness. The findings*